

SUN'IY INTELLEKTNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI

Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li

“International School Of Finance Technology And Science Institute” O'Qituvchisi,

Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi

Sun'iy intellekt -bu ish o'rinlarini yaxshilash, yuqori samaradorlikni yaratish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun inson aql-zakovatiga taqlid qiluvchi tizimlardir. Sun'iy intellekt faoliyati natijasida paydo bo'lgan intellektuallar samaradorlikni oshirish va biznes jarayonlari uchun yangi bilimlarni yaratish uchun zarur bo'lgan ko'plab nou-xaularga ega. Sun'iy intellekt -bu aqlli tizimlar xodimlar uchun texnologik platformalar orqali qimmatli ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi.

2021 yilning 17 fevral kuni “Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi.¹ Mazkur Qarordan ko'zlangan maqsad — “Raqamli O'zbekiston – 2030” Strategiyasiga muvofiq sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, ushbu hujjatda sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yo'nalishlari va tamoyillarini, shuningdek, yaqin va uzoq istiqbolda ushbu sohani kompleks shakllantirish uchun shart-sharoitlarni belgilovchi Sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishda yagona talablar, javobgarlik, xavfsizlik va shaffoflikni belgilovchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish, aholi manfaatlari yo'lida davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilashni nazarda tutadi. O'zbekistonda axborot va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali 2030 yilgacha innovatsion rivojlanishga ega yetakchi davlatlar qatoridan joy olish doimiy vazifa etib belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi hamda “Davlat ijtimoiy xizmatlarini ko'rsatish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5.10.2020 yildagi —“Raqamli O'zbekiston –2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-5234-son Qarori



va aholiga yordam ko'rsatish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida² qarorlari hamda mamlakatimizda raqamlashtirishni jadallashtirish va ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan huquqiy hujjatlar normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Hozirgi sharoitda real sektorda sun'iy intellekt bo'yicha amaliy yechimlarni joriy qilishni kuchaytirish va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini raqamli transformatsiyalashni jadallashtirish zarur. Bundan ham yuqori natijalarga erishish uchun rasmiylar sun'iy intellekt sohasida malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirda sun'iy intellekt yaratayotgan ish o'rinlari insonlar tomonidan topilishi qiyin bo'lgan ish o'rinlari ekanligini ko'ryapmiz. Sun'iy intellektning hozirgi rivojlanish darajasi hali ham juda past. Bu hali ham insonlarni robotlar bilan to'liq almashtirishdan juda uzoqdir. Sun'iy intellekt odamlarni keraksiz va muntazam ishlardan qutqarish imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyotning paydo bo'lishini zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va Global Internet tarmog'isiz tasavvur qilib bo'lmaydi.³ Raqamli iqtisodiyot, AKT va Internet tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. AKT va Internet texnologiyalarining rivojlanishi raqamli iqtisodiyot sohasiga sun'iy intellektni joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunda Internet ulkan ko'ngilochar, ta'lim, savdo, moliyaviy va siyosiy sohadir. Qolaversa raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi sun'iy intellekt sohasida olib borilayotgan tatqiqotlar va erishilgan yutuqlar bilan ham bog'liq. Sun'iy intellektning rivojlanishi raqamli iqtisodiyot sohasiga o'z ta'sirini o'tkazib vaqt o'tishi bilan o'zgartirib bormoqda. Raqamli iqtisodiyot ma'lumotlar tahlili, savdo-sotiq, kreditlar va ishlab chiqarishni optimallashtirish yoki uni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyotda sun'iy intellekt, ma'lumotlarni avtomatik ravishda tahlil qilish, o'rganish va nazorat qilishga yordam beradi. Bu esa tizimni samarali ishlashiga imkoniyat yaratadi va xatoliklarni kamaytiradi. Zamonaviy iqtisodiyotning katta qismi ma'lumotlarga asoslangan, shuning uchun ma'lumotlarni savdo va xizmat ko'rsatishga aylantirish juda muhimdir. Raqamli iqtisodiyotda sun'iy intellekt tizimlari bu maqsadga xizmat qilish uchun muhim omil bo'lib, ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, ma'lumotlarni

² <https://strategy.uz>

³ <https://journal.jbnuu.uz>



uzatish, optimallashtirish, xizmat sifatini yaxshilash va ko'rsatkichlarni nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Shu o'rnida shuni takidlab o'tish joizki, sun'iy intellektning rivojlanishi ko'pgina sohalarga o'z ta'sirini o'tkazish bilan bir qatorida raqamli iqtisodiyotga ham jadal kirib kelishda davom etmoqda. Bu esa foydalanuvchi va xizmat ko'rsatuvchilarga ko'plab qulayliklar yaratib bermoqda.

Tadqiqotchilarning xulosalariga ko'ra, sun'iy intellekt strategiyalari nafaqat tajriba loyihalarida, balki biznesni to'liq o'zgartirish uchun ham qo'llanilishi kerak. Bundan tashqari, sun'iy intellekt xarajatlarni kamaytirishdan ko'ra sotishning o'sishi uchun foydaliroqdir va sun'iy intellektning rivojlanishi xorijiy texnologiyalardan foydalanishdan ko'ra ko'proq foyda keltiradi. Tadqiqotchilar, shuningdek, kompaniya rahbariyatiga sun'iy intellektni kompaniya boshqaruv direktorlariga emas, balki undan haqiqatan ham foydalana oladiganlar qo'lga topshirishni tavsiya qiladi, chunki bu holda texnologiyani joriy etishdan real foyda olish imkoniyati 50% ga kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5.10.2020 yildagi —"Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-5234-son Qarori
2. Hamdamov, S. K. (2021). Zamonaviy dunyoda xalqaro investitsiyalarning asosiy shakllari. *Science and Education*, 2(12), 889-892.
3. Khamdamov S. ASSESSMENT OF RISKS RELATED TO PENSION SUPPORT OF CITIZENS CONCERNING PENSIONS BY AGE //International Finance and Accounting. – 2020. – T. 2020. – №. 2. – C. 8.
4. Erniyazova S.Sh., Khamdamov S.K., Yuldasheva N.V. FINANCIAL CRISIS AND HOW TO PREVENT IT// An International Multidisciplinary Research Journal. – Volume 11, Issue 3, March 2021
5. Хамдамов Ш. К. и др. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашда пенсия таъминотининг аҳамияти //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 8. – С. 700-717.
6. Khamdamov S. ASSESSMENT OF RISKS RELATED TO PENSION SUPPORT OF CITIZENS CONCERNING PENSIONS BY AGE //International Finance and Accounting. – 2020. – T. 2020. – №. 2. – C. 8.
7. Mukhammadjon Muzaffarov. Projects formed on the basis of public opinion and financing them in Uzbekistan. *World of Scientific news in Science*, 2023/12/17



8. Muhammadjon Muzaffarov. DIGITALIZATION OF THE BANKING SECTOR, ITS TRANSFORMATION AND EFFICIENCY. Miasto Przyszłości, 2023/12/31
9. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li. IQTISODIY O 'SISHGA TA'SIR KO 'RSATUVCHI OMILLAR VA ULARNING TASNIFI. MASTERS, 2023/12/27
10. Muhammadjon Muzaffarov. RAISING INTERNATIONAL CAPITAL BY INCREASING THE COUNTRY'S INVESTMENT ATTRACTIVENESS. MASTERS, 2023/12/27
11. Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li, Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g. AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KORPORATIV MOLIYAVIY STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI. MASTERS. 2023/12/27
12. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li. WAYS TO IMPLEMENT OPTIMIZED FISCAL POLICIES IN PROMOTING ECONOMIC GROWTH. MASTERS, 2023/12/27
13. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li. TASHQI SAVDODA SOLIQ NAZORATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR. MASTERS, 2023/12/27
14. Ortiqov Ulugbek Akrombek o'g'li, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li. O 'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINING RIVOJLANISHI. MASTERS, 2023/12/27
15. Muhammadjon Maxmud o'g'li Muzaffarov. BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH ORQALI KORXONA RESURSLARINI BOSHQARISH. Science and education, 2023/10/30
16. Исроилова Мухаббат Рустамжон кизи. Факторы развития реального сектора экономики и роль инвестиций в него. Golden Brain, 2023/12/25
17. ИСРОИЛОВА Мухаббат Рустамжон қизи. ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ ЭКСПОРТИ. ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛИ, 02/2023.
18. Исроилова Мухаббат Рустамжон кизи, Музаффаров Мухаммаджон Махмуд угли. НЕОБХОДИМОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ. ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 01/2024
19. <https://strategy.uz>
20. [https://journal.](https://journal.uz)
21. jbnuu.uz

